



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев “Хизмат” тушунчасининг иқтисодий кагегория сифатида назарий таҳлили	5
Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Рустам Алижонович Мусабоев Истеъмолчилик хулқининг трансформацион хусусиятлари	11
Аскар Ҳайдарович Джумаев Жаҳон хўжалигида иқтисодий тизимларнинг қиёсланишининг услубий жиҳатлари	16
Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov Amir Temur ijtimoiy faoliyatida ratsionallik yondashuvi	20
Lola Nazarovna Xalikova Ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlar	24
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Боҳодир Ибрагимович Исроилов, Бобуршоҳ Боҳодир ўғли Ибрагимов Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ ҳуқуқбузарликларини таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Қулмамат Джонузоқович Мирзаев, Гиёс Турабекович Юлдашев Республикамизда деҳқончиликни инновацион асосда ривожлантиришни асосий тараққиёт тенденциялари	32
Жунайдулло Садиевич Файзиев Умумий овқатланиш корхоналарини дастурий – аппарат комплексларидан фойдаланиб автоматлаштириш	37
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Раҳматулла Хидирович Эргашев Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини ошириш	42
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Зариф Юсупович Аминов Инсон иқтисодий хавфсизлигига ишчи кучи сифатининг таъсири	49
Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi kamchilik va muammolar	53
Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning uslubiy asoslari	57
Sadoqat Qudratovna Bultakova Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning O‘zbekistonda o‘shish dinamikasi	63
Luiza Komilovna Haydarova Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillarini tahlili	67
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	74

OTM web-sayti va HEMISni o‘zaro bog‘laydigan URL manzil xavolalarini yaratish;

OTMning elektron ma’lumotnomalarini, ma’lumotlar bazalarini va statistik ma’lumotlar to‘plamlarining infografikasini yaratish, ulardan foydalanish va ularga havolalarni uchinchi tomon resurslarida joylashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gulyamov S.S., Ayubov R.X., Abdullaev M.Q. Raqamli iqtisodiyot – kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal, №1, 2020 y. 186-198 betlar.

2. Maslowsky, C. (2013). Five Ways Higher Education Marketing Will Change in 10 Years. The EvoLLLution. Retrieved 20 July 2016.

3. Пителинский К.В. Связь имиджа и образовательного процесса в вузе // В сб. докладов XI открытой научной конференции МГТУ «СТАНКИН» и «Учебно-научного Центра Математического моделирования МГТУ «СТАНКИН» и ИММ РАН» под ред. О.А. Казакова Москва 23-25 апреля 2008г, МГТУ «СТАНКИН» -С. 107-110.

4. Рустамбеков И. Олий таълимни рақамлаштириш – устувор вазифа. <https://kun.uz/news/2023/03/28/oliy-talimni-raqamlashtirish-ustuvor-vazifa>.

5. Шевченко Д.А. Сайт вуза: методика и оценка [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://shevchenko.rggu.ru/?p=816>

<p>Б.Мусаев</p> <p>Методологические основы продвижения услуг высшего образования на основе цифровых технологий</p> <p>Аннотация: в данной статье представлены результаты исследования оценки веб-сайтов высших учебных заведений, проведенного с использованием метода социологического опроса. По результатам исследования определены цели посещения сайтов ВУЗов Самарканда, результаты оценки привлекательности сайтов с помощью метода опроса, а также представлен анализ контента, который необходимо разместить на сайте высших учебных заведений.</p> <p>Ключевые слова: дизайн сайта, навигация сайта, интерактивность сайта, контент сайта, видимость сайта, инструмент продвижения.</p>	<p>B.Musaev</p> <p>Methodological foundations of promotion of higher education services based on digital technologies</p> <p>Abstract: this article presents the results of a study of higher education institutions websites evaluation, conducted using the method of sociological survey. Based on the results of the study, the purposes of visiting the websites of universities in Samarkand were determined, the results of assessing the attractiveness of websites using the survey method were determined, and an analysis of the content that needs to be placed on the website of higher educational institutions was presented.</p> <p>Keywords: website design, website navigation, website interactivity, website content, website visibility, promotion tool.</p>
---	---

Sadoqat Qudratovna Bultakova – SamISI doktranti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI VA UNING O‘ZBEKISTONDA O‘SISH DINAMIKASI

<p>Annotatsiya: maqolada xizmat, servis, tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining bu boradagi ta‘riflari keltirilgan. Shu bilan birgalikda xizmatlar bozorining roli, ahamiyati, xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari, hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi, xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari va bu borada tegishli xulosa va tavsiyalar keltirilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: xizmat, servis, xizmatlar hajmi, xizmatlar ko‘rsatkichi, xizmat ko‘rsatish sohasi, o‘sish sur‘ati, transport xizmatlari</p>

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining 70,4 foizi xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda hamda jami band bo‘lgan aholining 55 foizidan ortig‘i xizmatlar sohasida ishlab kelmoqda. Jumladan, 2023-yilda korxonalar va tashkilotlar tomonidan

jami 116,8 trln soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi. Oʻtgan yili bu koʻrsatkich 89.3 trln soʻmni, davriy oʻsish esa 18,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, xizmatlar sohasida moliya, aloqa va axborotlashtirish, taʼlim va transport xizmatlaridagi oʻzgarishlar boshqa turdagi xizmatlarga nisbatan yuqori oʻsish boʻyicha natijalarni qayd etgan. Xizmatlar sohasiga ahamiyatni kuchaytirish, uni yanada takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha qaror va farmonlari sohani rivojlantirish uchun dasturilamal hisoblanadi. Jumladan: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabridagi PF-158-sonli “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi farmoni kabilar sohada kichik korxonalar va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturallarni yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash orqali xizmatlar hajmini yanada kengaytirish uchun ragʻbat boʻlmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Koʻpincha xizmat va servis tushunchalari bitta soʻz sifatida qaraladi va tushuniladi, aslida esa har biri oʻz maʼnosiga ega va har xil tushunchalardir. Bularga alohida taʼrif berilganda; **servis** deganda insonlarning maʼlum bir ehtiyojini qondirishga yoʻnaltirilgan kishilarning naf keltiradigan maʼlum sertifikat va andozalarga ega, sifat jihatidan yuqori boʻlgan xizmat jarayoni bilan bogʻliq ongli faoliyati tushuniladi.¹

Xizmat deyilganda, insonning xoʻjalik yurutuvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning maʼlum bir ehtiyojini qondirishga yoʻnaltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bogʻliq ongli faoliyati tushuniladi.² Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.M.Muhammedov xizmat koʻrsatish sohasini inson nuqtayi nazaridan qarab, aholining sogʻligʻiga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligiga, oʻz hayotidan rozilik darajasi va xursandliligiga, umuman ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadigan soha³ deb taʼrif bersa, J.M.Qurbonov xizmat koʻrsatish – bu insonlarning yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yoʻlidagi harakati bilan faoliyat olib borishi tushuniladi⁴ deb taʼrif keltirgan. Q.J.Mirzayev xizmat koʻrsatish sohasini korxonalarining daromad olish nuqtayi nazaridan qarab, “xizmat koʻrsatish - insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish subyektlarida yuzaga keladigan, oʻz isteʼmol ehtiyojlarini qondirishga yoʻnaltirilgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat⁵” deb aytib oʻtgan.

Bulardan kelib chiqib, xizmat tushunchasiga taʼrif beradigan boʻlsak, xizmat bu isteʼmolchi va xizmat koʻrsatuvchi oʻrtasidagi natija, u talabni qondirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy munosabatdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xizmat koʻrsatish sohasida menejmentni barqaror rivojlantirish, servis korxonalarini faolyatida sifat va samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishning innovatsion usullarini joriy etish uchun umumlashtirish, qiyosiy tahlil va stastistik maʼlumotlar asosida kelgusi yillarni prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Jahon tajribasidan maʼlumki, xizmat koʻrsatish sohasida kam xarajat bilan tez muddatda biznesni yoʻlga qoʻyish, daromadni real oʻsishini taʼminlash hamda yangi ish oʻrinlarini boshqa tarmoqlarga nisbatan koʻproq tashkil etish mumkin.

2023-yil yakunlariga koʻra Samarqandda xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan quymati hajmi 437 822,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi va nisbatan 6,8%ga oʻsdi. Shu jumladan savdo xizmatlari 9,9% ga, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar 12,5% ga, tashish va saqlash xizmatlari 8% ga, axborot va aloqa xizmatlari 24,2% ga, boshqa xizmatlar 4,5% ga oʻsdi.


¹ Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat koʻrsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yoʻllari.

² Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi. // Xizmat koʻrsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari.

³ Muhammedov M.M. “Xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish – ustuvor masala // -«SERVIS». Ilmий-ommabop jurnal. 2009 yil, 1-son. 53 b.


⁴ Qurbonov J.M. Xizmat, Xizmat koʻrsatish, servis // - «SERVIS». Ilmий-ommabop jurnal. 2009 yil, 1-son. 58 b

⁵ Mirzayev Q.J. “Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslari” Iqtisod fanlari diktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2012y.49 b.



1-rasm. Samarqand viloyati kesimida 2023 yil bo‘yicha xizmatlar sohasining foizlarda ifodalanishi.

1-rasmda shuni ko‘rish mumkinki, axborot va aloqa xizmatlari kattaroq o‘rinda ekanligini, eng katta hajmini telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmini telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi 91,6 foizni tashkil etdi.



2-rasm. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

2-rasmda shuni ko‘rish mumkinki yildan-yilga xizmatlar hajmining va ularning foizi ham ko‘tarilganini, boshlang‘ich yilda 2019-yilda xizmatlar hajmi 16,6%ga dan 2023-yil 18,2%ga oshgan. Iqtisodiy tarmoqlarda xizmatlar sohasining o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lganligi sababli, ushbu sohadagi o‘zgarishlar hamda rivojlanishlar kelgusida ham yanada o‘sishi prognoz qilinmoqda. Xizmatlar sohasi o‘shish tendensiyasi-davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish bilan birgalikda, sohaga keng qamrovda tadbirkorlarni jalb qilish va bu orqali aholi bandligini ta‘minlash kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar yotadi.

1-jadvaldan ma‘lum bo‘ladiki; eng ko‘p xizmatlar hajmi yillar kesimida Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Undan keyingi o‘rinda Navoiy va Toshkent viloyati ko‘rsatkichlari yuqori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan vazifa va topshiriqlarning ijrosini mas‘ullar tomonidan o‘z vaqtida samarali bajarilishi orqali maqsadli

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	5 768,2	6 426,1	8 145,1	10 292,0	12 915,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 010,4	3 412,0	4 368,8	5 399,3	6 472,6
Andijon	3 165,3	3 614,1	4 489,4	5 414,7	6 489,0
Buxoro	4 406,3	5 085,5	6 409,0	7 951,2	9 543,6
Jizzax	3 148,8	3 598,6	4 482,0	5 568,7	6 958,3
Qashqadaryo	2 710,7	3 128,7	3 828,0	4 634,6	5 542,6
Navoiy	5 115,9	5 809,1	7 286,6	8 924,3	10 813,5
Namangan	2 785,0	3 144,9	4 007,7	4 956,8	5 878,7
Samarqand	3 331,5	3 600,3	4 576,7	5 633,1	6 963,5
Surxondaryo	2 685,8	3 018,4	3 830,2	4 626,7	5 452,1
Sirdaryo	3 253,6	3 869,4	4 809,5	5 654,4	6 737,0
Toshkent	4 988,8	5 572,3	7 271,9	8 737,2	10 565,3
Farg'ona	3 142,9	3 617,1	4 589,0	5 622,5	6 616,9
Xorazm	3 113,5	3 437,0	4 373,6	5 399,2	6 710,9
Toshkent sh.	25 881,1	30 234,4	37 750,6	49 678,1	64 439,3

parametr ko'rsatkichlariga erishish natijasida aholi bandligini ta'minlash bilan bir qatorda, yangi xizmat turlarini joriy qilish, shuningdek aholi jon boshiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hamda tadbirkorlik subyektlarining sonini oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu orqali jamiyatimizning yashash tarzi yaxshilanib, ularning turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarish sohasidan farq qiladi. Bu sohada odamlar, mijoz, foydalanuvchi uchun qulaylik yaratishga qaratilgan bo'lib u:

- Xizmat ko'rsatish sohasining ko'pgina tarmoqlari butun mamlakat bo'ylab joylashgan. (sog'liqni saqlash, ta'lim sohasi) Boshqa soha tarmoqlari esa bundan mustasno.
- Xizmat ko'rsatish sohasi yuridik va jismoniy shaxslarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan.
- Soha xizmatchilari mijozlar bilan ishlagani sababli ulardan kerakli bilim, ko'nikma, tajriba talab qilinadi.
- Xizmat ko'rsatish sohasi boshqa sohalarga nisbatan kam avtomatlashtiriladi va mexanizatsiyalashtiriladi.
- Xizmat ko'rsatishda ba'zi tarmoqlarning moliyalashtirilishi asosan budjetdan tashqari mablag'lar va smeta asosida bo'ladi.
- Xizmat ko'rsatish sohasida boshqa tarmoqlarni ham ishtirokini ta'minlash va hamma salohiyatidan foydalanishni talab etadi.
- Bu soha asosan inson resursini talab qiladi va xizmat ko'rsatish sohasining asosiy moddiy texnik bazasini uzoq muddatli aktivlar (asbob-uskunalar, binolar, jihozlar) tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holga quyidagilarni shakllantirish zarur:

- Mijozlar uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish (xizmat ko'rsatish joylarida kerakli jihozlar bo'lishi, shifoxonalarda mijozlar uchun o'rindiqlar, kutish joylari, o'quv maskanlarida har bir o'quvchi uchun alohida o'rin).

- Xodimlarni zarur uskuna, qurilmalar bilan ta'minlash zarurligi, sohaning har bir tarmoqlarini kengaytirish va shu bilan birgalikda iste'molchilarni barcha kerakli iste'mol predmedlari bilan ta'minlash zaruriyati.

- Moddiy resurs bilan xizmat turlarini boyitish zaruriyati (kompyuter, shifoxonalarda tekshiruv, diagnostika qurilmalari, video texnika).

- Jonli mehnatda vujudga keladigan xarajatlarni kamaytirish.

Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishi hozirgi bozor iqtisodiyotida sharoitidagi roli kattaligini hisobga olgan holda quyidagilarni amalda qo‘llash lozim:

- Xizmat ko‘rsatish sohasini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirib, sohani yanada rivojlantirib, imkoniyatlaridan foydalanish.
- Qishloq joylarida, xizmat ko‘rsatish sohasi past hududlarda ushbu sohani yanada rivojlantirish va kamida shahar aholisining turmush darajasiga yaqinlashtirish va farqni kamaytirish.
- Imtiyozli xizmat turlarini ko‘paytirish (tibbiyot, ta‘lim sohasi xodimlari, nafaqadagi insonlar uchun)
- Yetuk malakaga ega bo‘lgan bilimli kadrlarni o‘qitib chiqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хўжакулов Х.Д., Рашитова Н.Х., Асқаров Н.Н., Сайфуллаев С.Н. Иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш шароитида таркибий ўзгаришларнинг самарали йўллари статистиқ методлар асосида ишлаб чиқиш. Монография. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. – 206 б.
2. Худайберганов D.T. Mintaqada tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning yalpi hududiy mahsulotga ta‘siri. // Iqtisodiyot va ta‘lim. 2022, №4. – 392-397 б.
3. Абдуллаев. И.С., Кўзибоев. Б.Х. Минтақа иқтисодиётини ривожлантиришда хизматлар соҳасининг ўзига хос хусусиятлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар журнали. № 3, май-июнь, 2016 йил
4. Мухаммедов М.М., Пардаев М.К., Зайналов Ж.Р., Асланова Д.Х. ва бошқ. Иқтисодиёт назарияси. Дарслиқ. - Т.: —”Фан ва технологиялар”, 2018.
5. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар луғати. – Т.: —ИҚТИСОД-МОЛИЯ нашриёти, 2010. – 398 бет.,
6. <https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

<p>С.Бултакова</p> <p>Сфера услуг и динамика её роста</p> <p>Аннотация: в статье уделено внимание понятиям «услуга» и «сервис», представлены определения учёных нашей страны. Наряду с этим представлены роль и значение рынка услуг, основные показатели сферы услуг, объём услуг по регионам, вопросы развития рынка услуг, а также соответствующие выводы и рекомендации.</p> <p>Ключевые слова: услуга, сервис, объём услуг, показатель услуг, сфера услуг, темпы роста, транспортные услуги.</p>	<p>S.Bultakova</p> <p>Service sector and its growth dynamics</p> <p>Abstract: the article focuses on the concepts of service, service sector and presents the definitions of the scientists of our country in this regard. Along with this, the role and importance of the service market, the main indicators of the service sector, the volume of services per capita by region, the issues of the development of the service market, and relevant conclusions and recommendations in this regard are presented.</p> <p>Keywords: service, volume of services, indicator of services, service sector, growth rates, transport services.</p>
---	---

Luiza Komilovna Haydarova – SamISI mustaqil izlanuvchisi

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH ZARURIYATI VA OMILLARINI TAHLILI

Annotatsiya: yangi xizmatlarni ilgari surish iste‘molchining xususiyatlari, uning kutishlari va tajribasi, ya‘ni xatti-harakatlariga ta‘sir qiluvchi omillarga jiddiy e‘tibor berishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, davlat, korxonona, innovatsiya, bozor, franchayzing, venchur, patent, nau-xau, investitsiya, raqobat, xususiy, ilmiy-tadqiqot.

Kirish: Hozirgi vaqtda barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim tendensiyalari sifatida axborot texnologiyalari, intellektual resurslar, yuqori texnologiyalar, zamonaviy xizmat

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.